

## BADIIY MATNDA INTERTEKSTUALLIK HODISASI VA INTERTEKSTUAL ELEMENTLAR

*Yuldasheva Maftunaxon Azizjon qizi  
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnda intertekstuallik hodisasi hamda intertekstual birliklarning roli haqida so'z boradi. Intertekstual elementlar (alluziya, reministsiya, epigraf, oksimoron va boshqalar) asarning ekspressivligini oshiradi, qo'shimcha ma'lumot beradi va asarning umumiy mazmunini yaxlitlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar o'quvchilarga asarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va matnni yanada qiziqarli va boy qiladi.*

*Kalit so'zlar: badiiy matn, intertekstuallik, intertekstual birliklar, epigraf, pretsedent birliklar, oksimoron, metafora, alluziya.*

## ФЕНОМЕН ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ И ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

*Юлдашева Мафтунахана Азизжан кизи  
Докторант Ферганского государственного университета*

*Аннотация: В данной статье рассматривается феномен интертекстуальности в художественном тексте и роль интертекстуальных единиц. Интертекстуальные элементы (аллюзия, реминисценция, эпиграф, оксюморон и другие) усиливают экспрессивность произведения, предоставляют дополнительную информацию и играют важную роль в достижении целостности общего содержания произведения. Эти средства помогают читателям лучше понимать произведение и делают текст более интересным и насыщенным.*

*Ключевые слова: художественный текст, интертекстуальность, интертекстуальные единицы, эпиграф, прецедентные единицы, оксюморон, метафора, аллюзия.*

## THE PHENOMENON OF INTERTEXTUALITY AND INTERTEXTUAL ELEMENTS IN ARTISTIC TEXT

*Yuldasheva Maftunakhan Azizjan kizi  
Doctoral student of Fergana State University*

*Annotation: This article discusses the phenomenon of intertextuality in literary texts and the role of intertextual elements. Intertextual elements (allusion, reminiscence, epigraph, oxymoron, etc.) enhance the expressiveness of a work, provide additional information, and play a crucial role in achieving the overall coherence of the text. These tools help readers better understand the work and make the text more interesting and rich.*

*Keywords: literary text, intertextuality, intertextual elements, epigraph, precedent elements, oxymoron, metaphor, allusion.*

**KIRISH.** Intertekstuallik hodisasi shu paytgacha tilshunoslar, adabiyotshunoslar, faylasuflar, madaniyatshunoslar, umuman o'rganish obyekti matn bo'lgan bir qator soha olimlari tomonidan tadqiq qilingan va hali ham bu jarayon davom etmoqda. Intertekst atamasi matn ichidagi matn ma'nosini anglatib, badiiy matnda bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu atama ilk bor 1966 yilda Julia Kristeva tomonidan qo'llanilgan. M. Baxtin, R. Bart, M. Rifattere singari ko'plab olimlar o'z asarlarida intertekstual vositalarning turli ko'rinishlarini qo'llagan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Badiiy matndagi intertekstual elementlar birlashib uning yaxlit mazmunini ifodalash, asar ekspressivligini oshirish va, albatta, qo'shimcha ma'lumot berish uchun xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, intertekstuallik hodisasi o'quvchi uchun tanish bo'ladi va badiiy matnning qabul qilinishini osonlashtiradi.

Intertekstual birliklarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, quyidagilar shular sirasidandir:

1. Alluziya
2. Reminisensiya
3. Epigraf
4. Oksimoron
5. Pretsedent birliklar
6. Geminatsiya
7. Tagma'no
8. Iboralar
9. Maqollar
10. Matallar
11. Alliteratsiya
12. Assonans
13. Ko'chimlar(metafora, metonimiya, ironiya)
14. Parafraza
15. Anafora
16. Epifora
17. Iqtibos
18. Ellipsis

Quyida ayrim intertekstual vositalarning badiiy matnni yoritishdagi ahamiyati haqida so'z yuritimiz va misollarni ko'zdan kechiramiz.

#### NATIJARLAR

Pretsedent birliklar. Pretsedent (lot. Praecedens – oldinda yuruvchi, oldingi) – oldin, o'tmishda sodir bo'lib, shu ko'rinishdagi keyingi birliklarga namuna yoki oqlovchi dalil bo'lib xizmat qiluvchi birlik. Boshqacha aytadigan bo'lsak, oldin mavjud bo'lgan, barchaga tanish bo'lgan nomning o'zga bir shaxs yoki narsaga nisbatan qo'llanilishi tushiniladi. Ular badiiy matnning intertekstualligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shoir Usmon Nosirning “Monolog” she'rida pretsedent nomlarning bir nechtasini ko'rishimiz mumkin.

Bilamanki, Tasso bechora  
 Rohat ko'rmay o'tgan bir umr.  
 Ey makkora qiz, Leonora ,  
 Nomi qora bilan yozilgur!..

Ushbu parchada Tasso qadimgi davrlarda o'tli ishq-muhabbat kuylangan asarning baxtsiz qahramoni, Leonora o'z oshig'ini ming azob-u uqubatlarga giriftor aylagan adabiy qahramon sifatida tilga olingan.

Javob bersin. Afotunmi , Vergiliymi , yo –  
 Boshqa biri, qani kim? Kim mard? Kim guvoh?  
 Ki, tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug'!  
 Spartakning lashkarlari hali ham borur.  
 To Minisdan Ramzesgacha, Ramzesdan nari  
 “Malika qiz” – Kleopatra hukmron davri.  
 Undan tortib... yana uzoq, yana ko'p yillar  
 Xarsang bilan yotqizilgan necha ming yo'llar.  
 Ko'zyoshidan, dil toshidan qurilgan haykal[2]

Yuqoridagi misralarda adib Usmon Nosirning “Nil va Rim” sherida tilga olingan qahramonar

nomiga e'tibor qarataylik. Aflotun va Vergiliy qadimgi Yunonistonning buyuk olimlari, Minis, Ramzes va Kleopatra esa Qadimgi Misr davlatining nomdor hukmdorlari. Ushbu pretsedent nomlar tinglovchiga tarixiy obraz sifatida tanish bo'lgani holda asarning ekspressivligini va mazmunini yaxlitligini ochib berishga xizmat qiladi. Asarning sarlavhasi "Nil va Rim" deb atalganligi ham bejiz emas.

«Epigraf» atamasi yunoncha (epigraphē) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «yozuv» degan maʼnoni anglatadi. Dastlab, bu atama binolar, haykallar yoki boshqa yodgorliklardagi yozuvlarga nisbatan ishlatilgan, lekin vaqt oʻtishi bilan uning qoʻllanilishi adabiy kontekstlarni ham oʻz ichiga olgan holda kengaydi. Epigraf — bu hujjat, bob yoki boʻlim boshida joylashtirilgan qisqa iqtibos, ibora yoki sheʼrdir. U kirish soʻzi yoki boshlangʻich sifatida xizmat qilib, keyingi mazmun haqida kontekst yoki mavzuli ishora beradi. Epigraflar koʻpincha ohangni belgilash, asosiy mavzuni taklif qilish yoki muallifning niyatlari haqida tushuncha berish uchun ishlatiladi. Ular boshqa adabiy asarlar, diniy matnlar, mashhur iqtiboslar yoki muallif tomonidan yaratilgan original asarlar boʻlishi mumkin.

Oʻzbek adabiyotshunosligida epigraflar A. Qahhor, Gʻ.Gʻulom asarlarida tez-tez koʻzga tashlanadi. Jumladan, A. Qahhor hikoyalarida xalq maqollarini epigraf sifatida qoʻllash orqali butun boshli hikoya mazmunini bir maqol vositasida mahorat bilan ochib bera olgan. Adib "Oʻgʻri" hikoyasining epigrafida "Otning oʻlimi, itning bayrami" deb yozadi. Epigrafni oʻqiboq oʻquvchi hikoyaning mavzusi kimningdir qiyin vaziyatga tushib qolishi boshqa birovga xursandchilik olib kelishi mumkinligini anglab yetadi. Bunda oʻlim va bayram soʻzlari antonim sifatida qoʻllangan. Ot va it ham salbiy qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Adib hikoya qahramonlarining tushkun holatini goʻzal implikatsion talqinda yoritib bergan.[6] Shuningdek, hikoyada "Begim deguncha belim sinadi", "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", "Berganga bitta ham koʻp, olganga oʻnta ham oz", "Quruq qoshiq ogʻiz yirtadi", "Oʻynashmagil arbob bilan -seni urar har bob bilan" kabi maqollarning har biri zamirida chuqur yashirin maʼno boʻlib asar bosh qahramonining nochor holda qolgan boʻlsada, yakkayu yagona boquvchi sigirini topish uchun qoʻldan kelganicha yuqori mansabdagi shaxslarga sovgʻa-salomlar ulashib, bor-budini sovirishi nazarda tutiladi va bu holat hikoya oxirigacha davom etadi. [8]

"Bemor" hikoyasi epigrafida Qahhor uslubiga xos boʻlgan qisqa va loʻnda "Osmon yiroq, yer qattiq" maqoli qoʻllanadi. Bunda osmon va yer oʻzaro qarama-qarshi tushunchalar boʻlib, kambagʻal va omi kishining vaziyatdan chiqib keta olmasligi, hech qanday imkoni yoʻqligini taʼriflaydi. Ushbu hikoyada bemorga qarashga mablagʻi boʻlmagan turmush oʻrtogʻining ogʻir holatiga nisbatan "Bunday paytlarda yoʻgʻon choʻziladi, ingichka uziladi" maqolidan foydalanilgan. Yoʻgʻon va ingichka oʻzaro zid maʼnoda ishlatilib, bosh qahramon misolida mablagʻi bor odam vaziyatdan chiqa oladi, qashshoq esa uziladi, yaʼni vaziyatning qurboni boʻladi, degan natijani intertekstual birliklar yordamida mohirlik bilan oʻquvchiga yetkaza oladi.[3]

"Soʻngan vulqon" hikoyasi nihoyasida "Yer tepganni, el tepadi" maqolini bosh qahramon tili bilan aytadi. Ushbu hikoyada Sheramat aka yoshi oʻtib, mansabidan tushar ekan, bu holatni qabul qila olmay, oʻziga nisbatan baho berib shunday deydi. "Ikki yorti bir butun" hikoyasi sarlavhasi maqol boʻlib, shu birgina maqol butun asar mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Hikoyadagi ikki erkak oʻzaro suxbatidan bir-biriga mos tushgan xarakterli shaxslar ekanligi ushbu maqolda yoritib berilgan. Yorti va butun soʻzlari qarama-qarshi soʻzlardir. Shuningdek, hikoya tarkibidagi "Eshakni yashirsangiz, hangrab sharmanda qiladi" deganida esa xufiyona bajarilgan har qanday baribir oshkor boʻladi maʼnoda ishlatilgan. "Bashorat" hikoyasida epigraf sifatida "Ola qargʻa qagʻ etadi, oʻz koʻnglini chogʻ etadi" maqolini har kim qandayligidan qatʼiy nazar oʻz xursandchiligini nishonlashini aytadi, "Sep" hikoyasida esa "Mashqda qiynalsang, urushda qiynalmaysan" kabi maqollardan samarali va oʻz oʻrnida hikoya qahramonining asl holatini tasvirlash maqsadida foydalanadi. [7]

Xalq maqollaridan epigraf sifatida foydalanish intertekstuallikni hosil qiladi hamda badiiy asarning oson tushunilishi, matnning ekspressivligini taʼminlaydi va maqsadini keng ochib beradi.

Yana bir intertekstuallikni hosil qiluvchi vosita oksimoron hisoblanadi. «Oksimoron» atamasi yunoncha (oxys), ya'ni «o'tkir» yoki «keskin,» va (moros), ya'ni «bo'g'iq» yoki «ahmoqona» so'zlaridan kelib chiqqan. Ushbu ikki qarama-qarshi atamaning birikmasi o'z-o'zidan bir oksimoron yaratadi, chunki u keskinlik va bo'g'iqni ya'ni “keskin lekin be'mani” tushunchalarini yonma-yon qo'yadi. Ushbu tushuncha ritorikada qarama-qarshi g'oyalarni birlashtirish orqali e'tiborni jalb qilish va o'ylantiruvchi ta'sir yaratish uchun qo'llaniladi. Oksimoron ikki ko'rinishda qarama-qarshi yoki zid atamalarni birlashtirib, paradoksal ta'sir hosil qiladigan iboradir. U ko'pincha murakkab g'oyani ta'kidlash, hazil qo'shish yoki dramatik ta'sir yaratish uchun ishlatiladi.

Buyuk ingliz adibi va dramaturgi V.Shekspir “Romeo va Julietta” tragediyasida quyidagi jummalarni keltiradi:

Good night, good night! parting is such sweet sorrow,  
That I shall say good night till it be morrow.[4]

Julietta Romeoning uni tark etayotgandagi qayg'uli his-tuyg'ularini “sweet sorrow” ya'ni «shirin qayg'u» deb tasvirlaydi. Adibning oksimoron ishlatishi shuni ko'rsatadiki, Juliettaning Romeo bilan ajralish haqidagi «qayg'u»si va xafachiligi ham «shirin» va yoqimli. U Romeoga xayrli tun deyishi kerakligini bilib, qayg'u his qiladi. Biroq, u yana uni ko'rishni orziqib kutayotganligi bu yoqimli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bundan tashqari, loving hate (muhabbatli nafrat), heavy lightness og'ir yengillik), bright smoke( musaffo tutun), cold fire (otashin olov), sick health( zaif sog'lik) kabi iboralar ushbu asarda oksimoron sifatida qahramonlar nutqida mohirona foydalanilgan va intertekstuallikni hosil qilgan.

Yana bir eng ko'p foydalaniladigan intertekstual vositalardan biri metafora hisoblanadi. «Metafora» atamasi yunoncha (metaphora) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «ko'chirish» yoki «o'tkazish» degan ma'noni anglatadi. Yunoncha ildizlari (meta) - «ustida» yoki «ortiq,» va «(phero) - «ko'tarish» yoki «olib borish» degan ma'noni bildiradi. Bu tushuncha bir so'z yoki g'oyadan boshqasiga ma'no ko'chirishni, bir obyektning sifatleri yoki xususiyatlarini boshqasiga ko'chirishni anglatadi, bu orqali ikkalasining ham tushunilishini boyitadi. Metafora — bu ikki o'xshash bo'lmagan narsalar o'rtasida aniq taqqoslashni o'z ichiga olgan ibora shakli bo'lib, bir narsani boshqa narsa sifatida tavsiflashni taklif qiladi. Bu taqqoslash uchun «kabi» yoki «day» so'zlari ishlatilmaydi. Metaforalar ma'noni qo'shish, tasvir yaratish va mavzuning chuqurroq tushunilishini ta'minlash uchun ishlatiladi, o'xshashliklarni aniqroq va tasavvuriyroq tarzda ta'kidlaydi.

Boy: -He, attang! Gulni gulga qo'shmay, gulni sassiqalafga qo'shib qo'yibman. Ha, pishmagan xom kalla! (Peshonasiga urub) Bu nozanin uvol. Cho'rilikka emas, bekalikka arziydi-ya (Hamza. «Boy ila xizmatchi»).

Solihboy nutqidagi birinchi va uchinchi «gul» so'zlaridan Jamila tushunilsa, ikkinchi «gul» so'zi orqali boyning o'ziga ishora qilinyapti va «sassiq alaf» iborasi orqali esa G'ofur nazarda tutilyapti. Shu o'rinda yozuvchi tomonidan qo'llagan metaforalar intertekstuallik hosil qilib asarning bo'yoqdorligini ta'minlaydi.

Quyidagi keltiriladigan Qoratoy nutqidagi «qizilgul», «oq gul» iborasidan Gulnor bilan Yo'lchi tushunilsa, «chaqir tikanak» birikmasidan Mirzakarimboy anglashiladi:

— Sen, oti nima, Gulnorni sevasan-a? U ham sevadi. Shundaymi?—Misoli Tohir-Zuhra... Qarabsanki, qizil gul bilan oq gul o'rtasidan chaqirtikanak o'sib chiqyapti. Tushunib olaver o'zing!... (Oybek. «Qutlug' qon»).[1]

Hold fast to dreams  
For if dreams die  
Life is a broken-winged bird  
That cannot fly.  
Hold fast to dreams  
For when dreams go

Life is a barren field

Frozen with snow. (L.Hughes "Dreams")[9]

Ushbu she'rda Hughes a broken-winged bird va barren field metaforalarni qo'llab, hayotni qanoti singan qushga va hosil bermaydigan dalaga mengzaydi, sababi inson orzulari o'lsa hayotidan ma'no va mazmun ham yo'qolishi begumon. Birinchi bandeda shoir agar orzular o'lsa, hayot "ucholmaydigan siniq qanotli qush" kabidir deb da'vo qiladi. Metafora o'quvchida yaralangan, yerga tushgan va o'z maqsadiga yetolmaydigan qush tasvirini yaratadi. Sherning ikkinchi bandeda orzularsiz hayotni "qor bilan qoplangan hosilsiz dala"ga qiyoslaydi. Bu esa o'z o'rnida intertekstuallikni ta'minlab badiiy matnning ekspressivligini oshiradi.

#### XULOSA

Badiiy matnda intertekstuallik hodisasi adabiy asarlarni yanada boyitib, o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va mazmundorligini ta'minlaydi. Intertekstual elementlar, masalan, alluziya, reministensiya, epigraf, oksimoron, pretsedent birliklar, geminatsiya, tagma'no, iboralar, maqollar, matallar, alliteratsiya, assonans, ko'chimlar, parafraza, iqtibos va ellipsis badiiy matnning ekspressivligini oshirishda, qo'shimcha ma'lumot berishda va asarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Pretsedent birliklar, masalan, tarixiy va adabiy qahramonlarning nomlari, asarga chuqurroq ma'no berib, uning ta'sirchanligini oshiradi. A.Qahhor va G'.G'ulom asarlarida epigraflar xalq maqollarini epigraf sifatida qo'llash orqali hikoya mazmunini bir maqol vositasida ochib beradi. Oksimoronlar, qarama-qarshi tushunchalarni birlashtirib, dramatik va e'tiborni jalb qiluvchi ta'sir yaratadi. Metaforalar esa ikki o'xshash bo'lmagan narsalar o'rtasida bog'lanish o'rnatib, asarning boyligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, intertekstuallik badiiy asarlarning tushunilishini va qabul qilinishini osonlashtiradi, asarning boy va mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu vositalar o'quvchining adabiy tajribasini boyitib, asarning ekspressivligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lapasov j. Badiiy matn va lisoniy tahlil. «O'qituvchi» Toshkent-1995.
2. 8-sinf uchun darslik-majmua. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014.
3. Qahhor A. Qissa va hikoyalar, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi; Toshkent-2012.
4. Shakespeare W. Romeo and Juliet. <https://shakespeare.folger.edu>
5. Qo'ng'urov R. Uzbek tilining tasviriy vositalari. «Fan» nashriyoti. Toshkent, 1977, 13-bet.
6. Yuldasheva M. "Ingliz va o'zbek tillarida implikatsiya hodisasining o'rganilishi" magistrlik dissertatsiyasi. Farg'ona: FDU., 2022.
7. To'xtasinova N. TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida) April, 2022.
8. Abdullayeva.N, Mirzayeva.D ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA MAQOL VA MATA LLARNING QO'LLANISHI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2(11)
9. <https://poets.org/poem/dreams>